ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-3

BIR O'LCHAMLI SUSPENZIYANI FILTRLASH MASALASINI SONLI ECHISH USULI.

U.Nishanov SamDAQU o'qituvchisi nishonov807@gmail.com
G'.Nodirov SamDAQU o'qituvchisi nodirovgulom75@gmail.com
J.Parmanov SamDAQU o'qituvchisi jamshiparmanov1987@gmail.com
V.Sharipov SamDU magistranti vasliddinsharipov1@gmail.com
M.Tojinorov SamDU magistranti tojinorovmasud@gmail.com

Annotatsiya

Maqola bir o'lchamli suspenziyani filtrlash masalasini sonli yechish filtr va cho'kmada bosimning tarqalish, qo'zg'aluvchang chegara grafiklarini keltirb chiqarilgan.

Kalit so'zlar

Filtrlash, suspenziya, konsoldasiya, progonka, diskerizasiya, dinamik tugun, cho'kma, osadka.

Aralashmani filtrlash texnikaviy jarayonlardan ancha murakkab hisoblanadi va bu jarayonlar ko'p miqdordagi mikro va makro faktorlardan bog'likdir. Aralashmalarni filtrlashni modellash fundamental ko'p fazali mexanik tenglamalar, ko'p kompanentali muhitdan va filtrlash konsoldasiya nazariyasidan bog'liq bo'ladi. Cho'kma qatlamida bosimning tarqalishi masalasi qo'zg'aluvchang chegaraga ega parabolik tipdagi klassik tenglamalarning yechimidan kelib chiqadi. Umumiy holda, Aralashmani filtrlashda real fizik shartlart cho'kmaning tuzilish strukturasi, filtrlash siqilishi bosim ta'sir farqidagi bir jinslimas muhit holati va boshqa konsolidasiya kuchlardan bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, konsolidasiya koeffiyenti o'zgaruvchang bo'ladi va osadka qalinligidagi bosimning tarqalishidan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun aralashmani filtrlashda hosil bo'ladigan cho'kmaning analiz qilish uchun konsolidasiya koeffisiyentini o'zgaruvchi qilib olamiz.

Tekis filtrlanuvchi elementni qaraylik. Filtrlash jarayonida aralashmaning yo'nalashga teskari ravishda filtr qatlami qandaydir z_0 bo'lsin. Vaqt o'tishi davomida filtr qatlami bosimning ta'sir farqidan qatiy nazar o'zgarmas bo'lsin. Aralashma filtrga tushgandan so'ng o'zluksiz $h(t)$ cho'kma qatlami chiziqli bo'lmagan holda o'sib boradi, ya'ni cho'kma – aralashma chegarasi ko'chib boradi. U hoda bu soxalarni ikkita soxashga ajratish mumkin: $\Omega_1(0, z_0)$ - filtrlanuvchi qatlam soxasi va $\Omega_2(z_0, h(t))$ - cho'kma soxasi, bu yerda albatta $z = h(t)$ - qo'zg'aluvchang chegara. Bu shartlarda jarayon xuddi Stefan masalasiga mos keladi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

Agar p - umumiy bosim, p_0, p_1, p_2 - suyuqlikning boshlang'ich momentdagi, cho'kma qatlamiga suyuqlikning kirishdagi va chiqishdagi bosimlari deb olsak, filtrlash jarayonining matematik modeli quyidagi ko'rinishda yozamiz.

$$\frac{\partial p}{\partial t} = b(p)\frac{\partial^2 p}{\partial z^2},\ 0<t\le T,\ z\in\Omega_2, \tag{2.30}$$

$$p(z,0) = p_0(z),\ z\in\Omega_1, \tag{2.31}$$

$$p(0,t) = p_2, 0<t\le T, \tag{2.32}$$

$$p[h(t),t] = p_1,\ 0<t\le T, \tag{2.33}$$

$$\frac{\partial p}{\partial z} = l\frac{dh}{dt},\ 0<t\le T, \tag{2.34}$$

Bu yerda $h(0)=z_0,\ b(p)=b_0e^{\alpha(p-p_1)}$ - konsolidasiya koeffisiyenti, $p_0 = p_2 + \frac{z(p_1-p_2)}{z_0},\ 0\le z\le z_0\ \ l=\frac{r\mu}{u}$, r - cho'kmaning solishtirma qarshiligi μ - qovushqoqlik koeffisiyenti, u - cho'kma sirtida qatlamning hosil bo'lish koeffisiyenti, α - parametr.

Bu (2.30)-(2.34) tenglamalar chiziqlimas tenglamalar bo'lgani uchun Yangi o'zgaruvchi kiritamiz.

Yangi o'zgaruvchi quyidagi qabul qilamiz:

$$v=\int_0^p \frac{d\xi}{b(\xi)} = a\left(e^{-\alpha p}-1\right),\ a=\frac{1}{-\alpha b_0 e^{-\alpha p_1}}$$

Bundan

$$p=-\frac{1}{\alpha}\ln\left(\frac{v}{a}+1\right) \tag{2.34}$$

ekanligi olamiz.

U holda (2.30) tenglama almashtirishlardan so'ng quyidagi ko'rinishga keladi

$$\frac{\partial v}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial z}\left(k(v)\frac{\partial v(p)}{\partial z}\right),\ k(v)=-\frac{1}{\alpha(v+a)}. \tag{2.35}$$

Xudi shunday bu almashtirishdan foydalanib (2.31)-(2.34) lar quyidagi ko'rinishga keladi:

$$v|_{t=0} = v_0(z) = a\left(e^{-\alpha p_0(z)}-1\right), \tag{2.36}$$

$$v|_{z=0} = v_2 = a\left(e^{-\alpha p_2}-1\right), \tag{2.37}$$

$$v|_{z=h(t)} = v_1 = a\left(e^{-\alpha p_1}-1\right), \tag{2.38}$$

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

$$k(v)\frac{\partial v(p)}{\partial z}=l\frac{dh}{dt}. \qquad (2.39)$$

(2.36)- (2.39) masalaning yechimini chekli ayirmalar metodi bilan yechamiz.

z o'qi bo'yicha f qadam bilan notekis to'r tanlaymiz $\overline{\omega}=\overline{\omega}_1+\overline{\omega}_2=\{z_i \mid z_i=if,\ i=0,1,...,m+j\}$, vaqt bo'ficha notekisch to'r hosil qilamiz

$$\overline{\omega}_\tau=\{t \mid t=t_j=t_{j-1}+\tau_j, t_m=0,\ j=m+1,m+2,...,N, t_N=T\}$$

$\tau_j>0$ -vaqt o'zgaruvchi qadami. Vaqt qadami $[t_j,t_{j+1}]$ intervalda so'rilganda qo'zg'aluvchi chegarra ham bita qadamga so'riladi. Qadamlarni bunday ko'rinishda izlash tugunni ilib olish metodi deb nomlanadi. To'rning dinamik tuguni $z=f(t_j)=i_j f$ ko'rinishda tanlab olamiz.

(2.35) tenglama oshkor bo'lmagan sxema ko'rinishda approksimasiya qilinadi

$$\frac{v_i^{j+1}-v_i^j}{\tau}=\frac{1}{f}\left(\chi_{i+1}\frac{v_{i+1}^{j+1}-v_i^{j+1}}{f}-\chi_i\frac{v_i^{j+1}-v_{i-1}^{j+1}}{f}\right), \qquad i=1,2,...N-1, \qquad (2.40)$$

Bu yerda

$$\chi_i=0{,}5\left[k\left(v_i^j\right)+k\left(v_{i-1}^j\right)\right].$$

Approksimasiya nachalnogo i granichnых usloviy boshlang'ich va chegaraviy shartlar (2.36)-(2.39) approksimasiya qilib

$$v_i^0=a\exp\left(\alpha p_i^0-1\right),\ p_i^0=p_2+\frac{if(p_1-p_2)}{mf},\ i=0,1,...m, \qquad (2.41)$$

$$v_0^{j+1}=v_2, \qquad (2.42)$$

$$v_i^{j+1}=v_1,\ z=i_{j+1}h_1 \qquad (2.43)$$

tengliklarni olamiz.

(2.39) shartnida esa $\frac{dh}{dt}\approx\frac{f}{\tau_{j+1}}$ ekanligi e'tiborga olib quyidagicha

diskerizasiya qilamiz:

$$\frac{1}{\alpha\left(v_i^{j+1}+a\right)}\frac{v_i^{j+1}-v_{i-1}^{j+1}}{f}+l\frac{f}{\tau_{j+1}}=0,\ z=i_{j+1}f. \qquad (2.44)$$

(2.40) tenglamani

$$A_i v_{i-1}^{j+1}-C_i v_i^{j+1}+B_i v_{i+1}^{j+1}=-F_i,\ i=\overline{1,j}, \qquad (2.45)$$

ko'rinishga olib kelamiz.

Bu yerda

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

$$A_i = \frac{\chi_i \tau}{f^2},\ B_i = \frac{\chi_{i+1}\tau}{f^2},\ C_i = 1 + \frac{\chi_i \tau}{f^2} + \frac{\chi_{i+1}\tau}{f^2},\ F_i = v_i^j.$$

(2.40) - (2.44) chiziqli bo'lmagaan ayirmali masalani yechish uchun xar bir yangi $t = t_{j+1}$ vaqt qatlamida iterasiya jarayonidan foydalanish mumkin bo'ladi. Oddiy iterasiyada bu sxema vaqt qadami τ_{j+1} topilib davom ettiriladi. Boshlang'ich shartda taxminiy τ_{j+1}^0 qadam beriladi. Berilgan yangi vaqt qadami τ_{j+1}^s dan v_i^{j+1} uchun quyidagi chiziqlimas ayirmali masalaning yechimi topiladi

$$A_i v_{i-1}^{s,j+1} - C_i v_i^{s,j+1} + B_i v_{i+1}^{s,j+1} = -F_i\ ,\ i = \overline{1, j}\ , \tag{2.46}$$

$$v_0^{s,j+1} = v_2, \tag{2.47}$$

$$z_i = i_{j+1} f \quad \text{tugunda } v_i^{s,j+1} = v_1. \tag{2.48}$$

Bu maslani yechish uch no'qtali progonka usuliga keltiriladi. (2.44) munosabatdan foydalanib oddiy holda vaqtning qadamini topish mumkin

$$z_i = i_{j+1} f \text{ tugunda } \tau_{j+1}^{s+1} = lf\left(\frac{1}{\alpha\left(v_i^{j+1} + a\right)} \frac{v_{i-1}^{j+1} - v_i^{j+1}}{f}\right)^{-1}. \tag{2.49}$$

Endi (2.46)-(2.49) ayrimali masalani yechish uchun teskari progonka metodian foydalanamiz. Bu yerda $i = m,\ 0 < m < h(t)$ - ichki tugunlar. $0 \le i \le m$ soxada malalani yechish uchun to'g'ri progonka metodi formulasidan foydalanamiz

$$v_i^{s,j+1} = \alpha_{i+1} v_{i+1}^{s,j+1} + \beta_{i+1}\ \ i = m-1, m-2, \ldots, 1, 0\ , \tag{2.50}$$

bu yerda

$$\alpha_{i+1} = \frac{B_i}{C_i - A_i \alpha_i}\ ,\ i = 1,2,\ldots,m-1,\ \alpha_1 = 0\ , \tag{2.51}$$

$$\beta_{i+1} = \frac{F_i + A_i B_i}{C_i - A_i \alpha_i}\ ,\ i = 1,2,\ldots,m-1,\ \beta_1 = v_2, \tag{2.52}$$

$m < i < h(t)$ sohada esa chap progonka metodi qullaymiz

$$v_{i+1}^{s,j+1} = \xi_{i+1} v_i^{s,j+1} + \eta_{i+1}\ ,\ \ i = m, m+1, \ldots, N-1, \tag{2.53}$$

bu yerda

$$\xi_i = \frac{A_i}{C_i - B_i \xi_{i+1}}\ ,\ i = N-1, N-2, \ldots, m,\ \ \xi_N = 0, \tag{2.54}$$

$$\mu_i = \frac{F_i + B_i \eta_{i+1}}{C_i - B_i \xi_{i+1}},\ i = N-1, N-2, \ldots, m,\ \ \eta_N = v_0. \tag{2.55}$$

(2.52), (2.54) larni $i = m$ tugunda birlashtirak


ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-3


$$v_m^{s,j+1} = \frac{\eta_m + \xi_m \beta_m}{1 - \xi_m \alpha_m} \qquad (2.56)$$

ga kelamiz.



2.1-rasm. α ning har xil qiymatlarida cho'kma qatlamining o'zgarishi қийматларида

$\alpha = 10^{-6}$ Па$^{-1}$ ( ); $\alpha = 10^{-7}$ Па$^{-1}$ ( ); $\alpha = 10^{-8}$ Па$^{-1}$ ( ). $t = 350$ с.



2.2-rasm. α ning har xil qiymatlarida cho'kma qatlamida bosimning tarqalishi

$\alpha = 10^{-6}$ Па$^{-1}$ ( ); $\alpha = 10^{-7}$ Па$^{-1}$ ( ); $\alpha = 10^{-8}$ Па$^{-1}$ ( ). $t = 350$ s.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 10.25 / 2025

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-6, ISSUE-3

Xulosa qilib aytganda masalani sonli yechib filtra va cho'kmada bosimning tarqalish, $h(t)$ qo'zg'aluvchang chegara grafiklarini olamiz. (2.1-2.2 rasmlar). Bu grafiklardan cho'kma qatlamining o'sishi va bosimning tarqalishni baholash mumkin bo'ladi. α qiymatning oshishi bilan mos ravishda konsolidasiya koeffisiyenti ham oshirb borar ekan. O'z navbatida cho'kma qatlami va bosimning tarqalishi ham ortib boradi. α qiymatning ortishi bilan $h(t)$ ning dinamik o'sishi kuzatish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алишаев М.Г. О нестационарной фильтрации с релаксацией давления // Тр. Московского обл. пед. ин-та им. Н.К.Крупской. «Гидромеханика». М., 1974. Вып. 111. С. 166-177.
2. Щелкачев В.Н. Разработка нефтеводоносных пластов при упругом режиме. М.: Гостоптехиздат. 1959. – 468 с.
3. Алишаев М.Г., Мирзаджанзаде А.Х. К учету явлений запаздывания в теории фильтрации // Изд. Вузов. Нефть и газ. 1975, № 6. С. 71-74.